

IQTISODIY MODERNIZATSIYASI VA GLOBAL MEGATRENDLAR SINERGIYASI

Turobova Hulkar Rustamovna

Buxoro davlat univesriteti

PhD, dotsenti

Eshbekov Murodjon Uktamovich

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada global miqyosda kuzatilayotgan megatrendlar va ularning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'siri o'rganildi. Xususan, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, urbanizatsiya va mehnat bozoridagi o'zgarishlar kabi yo'nalishlar tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va islohotlar global tendensiyalar bilan qanchalik mos ekanligi tahlil qilinib, moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari respublikaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda megatrendlar asosidagi yondashuvning dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: megatrendlar, iqtisodiy siyosat, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, strategik rejalashtirish.

Abstract

This article examines global megatrends and their impact on Uzbekistan's economic policy. In particular, such areas as digital transformation, green economy, urbanization, and changes in the labor market are analyzed. The article analyzes the extent to which strategic documents and reforms adopted by the government of Uzbekistan are in line with global trends and considers opportunities for adaptation. The research results demonstrate the relevance of a megatrend-based approach in ensuring the long-term economic stability of the republic.

Keywords: Megatrends, economic policy, digital transformation, green economy, urbanization, sustainable development, strategic planning.

Аннотация

В данной статье рассматриваются глобальные мегатренды и их влияние на экономическую политику Узбекистана. В частности, анализируются такие области, как цифровая трансформация, зеленая экономика, урбанизация и изменения на рынке труда. В статье анализируется степень соответствия стратегических документов и реформ, принятых правительством Узбекистана, глобальным тенденциям и рассматриваются возможности адаптации. Результаты исследования демонстрируют актуальность подхода, основанного на мегатрендах, для обеспечения долгосрочной экономической стабильности республики.

Ключевые слова: Мегатренды, экономическая политика, цифровая трансформация, зеленая экономика, урбанизация, устойчивое развитие, стратегическое планирование.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar natijasida zamonaviy megatrendlar global siyosat, iqtisodiy strategiyalar va milliy rivojlanish konsepsiyalarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyotga o'tish, demografik o'zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), katta ma'lumotlar (Big Data) va avtomatlashtirishning jadal joriy etilishi ushbu megatrendlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ular nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ham chuqur ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning yangi bosqichida, ya'ni islohotlarning uchinchi to'liqini sharoitida o'zining uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasini aynan ushbu global megatrendlarga moslashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevral PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11-sentabr 2023-yil PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni² kabi muhim hujjatlar ushbu yo'nalishdagi siyosiy irodani va institutsional yondashuvni namoyon etadi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy global megatrendlar va O'zbekistonning iqtisodiy siyosati o'rtasidagi uyg'unlik darajasini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Zero, milliy rivojlanish strategiyasining muvaffaqiyati global tendensiyalarga qanday moslashayotgani va ulardan qanday imkoniyatlar olinayotganiga bevosita bog'liq.

Ushbu maqolada global megatrendlarning asosiy yo'nalishlari tizimli ravishda ko'rib chiqiladi, ularning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ta'siri baholanadi va davlat siyosatining ushbu jarayonlarga nisbatan moslashuvchanlik darajasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha konseptual va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy global megatrendlar masalasi bugungi ilmiy va siyosiy diskursning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar bu megatrendlarni insoniyatning texnologik, demografik, iqlimiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar orqali shakllanayotgan tizimli siljishlar sifatida talqin etadilar. Biroq bu yondashuvlar bir xilda emas - ularning talqini, qiymatga bo'lgan yondashuvi va oqibatlari borasida sezilarli tafovutlar mavjud.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevral PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-8050769>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 11-sentabr 2023-yil PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Optimistik yondashuv vakillari, jumladan, Klaus Schwab, Thomas Friedman va Peter Diamandis megatrendlarni insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida ko'radilar. Schwabning "The Fourth Industrial Revolution" asarida aytilishicha, raqamli texnologiyalar (AI, IoT, Big Data, genomika, 3D printing) ijtimoiy adolat, samaradorlik va farovonlikni oshirish imkonini beradi, agar ular to'g'ri boshqarilsa [1], [2], [3].

Friedman tezlashayotgan texnologik o'zgarishlar, global integratsiya va ekologik siljishlar uyg'unlashib, yangi davrni boshlab berganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu megatrendlar siyosiy tizimlar, ta'lim va bozor tuzilmalari islohoti uchun zaruratni keltirib chiqarmoqda [4].

Diamandis esa texnologik innovatsiyalar kambag'allikni kamaytiradi, resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi va inson salohiyatini maksimal darajada namoyon etadi, degan nuqtai nazarni ilgari suradi [5].

Biroq boshqa bir qator olimlar yuqoridagi optimizmga tanqidiy munosabat bildiradilar. Dani Rodrik o'zining iqtisodiy globallashtirish va texnologik integratsiya haqidagi asarlarida shuni ta'kidlaydiki, megatrendlar rivojlanayotgan davlatlarda sanoatni zaiflashtirishi, ish o'rinlarini qisqartirishi va iqtisodiy mustaqillikni kamaytirishi mumkin. U har bir davlat o'zining kontekstiga mos transformatsiya yo'lini tanlashi zarur, deya uqtiradi [6].

Shuningdek, Joseph Stiglitz megatrendlar bilan bog'liq texnologik o'zgarishlar ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirayotganini, bozor asimmetriyasi kuchaygani sayin ijtimoiy norozilik xavfi ortayotganini qayd etadi. U bozor kuchlarini cheklash, davlatning redistributiv roli va innovatsiyalarni boshqarish zaruriyatini asoslaydi [7].

Francis Fukuyama esa texnologik megatrendlar demokratik institutlarga tahdid solayotganini, ayniqsa raqamli nazorat va axborot monopoliyalari orqali avtoritar tuzumlarning kuchayishiga xizmat qilayotganini ta'kidlaydi [8].

Yashil transformatsiya va ekologik megatrendlar borasida ham olimlar o'rtasida keskin tafovutlar mavjud. Nicholas Stern va Jeffrey Sachs global isish, karbon izini kamaytirish, uglerod soliqlari va yashil texnologiyalarni asosiy ijtimoiy investitsiya yo'nalishi deb hisoblaydilar. Stern Review hisobotida ta'kidlanishicha, bugun ekologik transformatsiyaga sarmoya kiritmaslik ertaga iqtisodiy halokatga olib kelishi mumkin [9].

Bunga qarshi pozitsiyani William Nordhaus bildiradi. Nobel sovrindori bo'lgan Nordhaus "The Climate Casino" asarida yashil siyosatga o'ta keskin va tezkor o'tish iqtisodiy izdan chiqishga, ishlab chiqarish tannarxining ortishiga va rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik chuqurlashishiga olib kelishi mumkinligini uqtiradi. U bosqichma-bosqich va ehtiyotkorlik bilan yo'l tutishni taklif etadi [10].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy global megatrendlar borasida bir xil yondashuv mavjud emas. Ular insoniyat taraqqiyoti uchun ulkan imkoniyatlar eshigini ochayotgan bo'lsa-da, noto'g'ri boshqarilsa ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy beqarorlik va siyosiy muvozanatsizlikka olib kelishi mumkin.

Bizningcha, har bir davlat megatrendlarni universal model sifatida emas, balki milliy kontekstda differensial yondashuv bilan tahlil etishi lozim. Bunda yo'l xaritalari,

moslashtirilgan siyosat choralari va institutsional moslashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun bu megatrendlar ichki transformatsiya manbai bo'lishi uchun mustahkam institutlar, inson kapitali va innovatsion infratuzilmaga tayanuvchi siyosat zarur.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda zamonaviy global megatrendlarning O'zbekistonning iqtisodiy siyosatiga ko'rsatayotgan ta'sirini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Ilmiy izlanishlar tizimli tahlil, komparativ yondashuv, kontent-tahlil va ekspert baholash metodlari asosida olib borildi. Tadqiqot dizayni deskriptiv va analitik metodlarga tayanib, dunyo miqyosidagi megatrendlar haqidagi ilg'or ilmiy va tahliliy manbalarni o'rganish orqali shakllantirildi. Bunda Klaus Schwab, Thomas Friedman, Dani Rodrik, Jeffrey Sachs va Joseph Stiglitz kabi taniqli olimlarning asarlari asosiy nazariy manba sifatida tanlab olindi. Ularning qarashlari kontent-tahlil yordamida tizimlashtirildi va iqtisodiy siyosatga oid turli yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilindi.

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar manbalari tarkibiga xalqaro ilmiy maqolalar, Jahon iqtisodiy forumi, BMT, OECD va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari kiritildi. Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy konferensiyalar materiallari ham tahlil manbasi sifatida qo'llanildi.

Tahlil jarayonida sifatli ilmiy yondashuvlar asosida tematik kontent-tahlil, solishtirma tahlil, SWOT-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Tematik kontent-tahlil orqali megatrendlarga oid asosiy ilmiy pozitsiyalar tahlil qilindi hamda ularning turli makroiqtisodiy parametrlar bilan bog'liqligi aniqlashtirildi. Solishtirma tahlil yordamida Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning megatrendlarga javoban ishlab chiqilgan siyosatlari O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi. SWOT-tahlil orqali O'zbekistonning global megatrendlarga moslashish salohiyati, kuchli va zaif jihatlari aniqlanib, imkoniyatlar va tahdidlar baholandi. Ekspert baholash esa xalqaro indikatorlar asosida mamlakat iqtisodiy strategiyasining zamonaviy talab va yo'nalishlarga mosligi darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida ba'zi statistik ma'lumotlarning yangilanmasligi yoki cheklanganligiga bog'liq muammolar mavjud bo'ldi. Xususan, O'zbekistonning strategik hujjatlarining to'liq matnlariga ochiq kirish imkonining cheklangani tahlil jarayonini murakkablashtirdi. Shuningdek, megatrendlarning uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun zarur bo'lgan dinamik ko'rsatkichlar to'liq shakllanmaganligi aniqlandi. Shu sababli, ayrim natijalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotda zamonaviy global megatrendlarning O'zbekiston iqtisodiy siyosatiga ko'rsatayotgan ta'siri kontent-tahlil, komparativ tahlil, SWOT-tahlil va ekspert baholash metodlari asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Global tendensiyalarning iqtisodiy siyosatga ko'rsatgan real ta'sirini o'rganishda Klaus

Schwab, Thomas Friedman, Dani Rodrik, Jeffrey Sachs va Joseph Stiglitz kabi olimlarning nazariy qarashlari asos qilib olindi. Ularning fikrlari zamonaviy transformatsion jarayonlar - ayniqsa, raqamli inqilob, yashil iqtisodiyot, globallashuvning evolyutsiyasi, tengsizlik muammolari va iqtisodiy siyosatdagi yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur qarama-qarshiliklarga ega.

Tematik kontent-tahlil metodi orqali dunyo miqyosida tan olingan ilmiy manbalar va global megatrendlar haqidagi konseptual yondashuvlar chuqur o‘rganilib, ularning asosiy g‘oyalari, tahliliy yo‘nalishlari va amaliy natijalari tizimlashtirildi. Tadqiqot doirasida Klaus Schwabning to‘rtinchi sanoat inqilobi, Thomas Friedmanning globallashuv bosqichlari, Dani Rodrikning iqtisodiy integratsiyadagi muvozanat nuqtalari, Jeffrey Sachsning barqaror rivojlanish strategiyalari hamda Joseph Stiglitzning adolatli iqtisodiy tizim haqidagi qarashlari asosiy nazariy poydevor sifatida tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, mazkur olimlarning ilmiy pozitsiyalari quyidagi tematik yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlashtirildi:

Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan to‘rtinchi sanoat inqilobi konsepsiyasi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishda avtomatlashtirish va sun‘iy intellektni qo‘llash zaruriyatini ko‘rsatib berdi. “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasida inson hayoti va iqtisodiyotning barcha jabhalarini raqamli texnologiyalar belgilab beradi, degan g‘oya asosiy o‘rinni egallaydi. Bu yo‘nalish bo‘yicha kontent-tahlil O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi¹ orqali raqamlashtirishga katta e‘tibor qaratilayotganini tasdiqladi.

Thomas Friedman va Dani Rodrikning fikrlariga asoslanib, global iqtisodiy integratsiya jarayonlari tahlil qilindi. “Thomas Friedman megatrendlarni uch asosiy kuch - texnologiyalar, globalizatsiya va iqlim o‘zgarishlari - orqali tushuntiradi va ularga moslashmagan jamiyatlar ijtimoiy barqarorlikni yo‘qotish xavfi ostida qolishini ta’kidlaydi”.

O‘zbekistonning so‘nggi yillarda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish kabi tashabbuslari orqali global iqtisodiy tizimga integratsiyalashishga intilayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Dani Rodrik ta’kidlaganidek, iqtisodiy suverenitet va mahalliy siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanat O‘zbekiston uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Jeffrey Sachsning barqaror rivojlanishga oid qarashlari tematik jihatdan ekologik muvozanat, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berdi. “Jeffrey Sachs esa ekologik iz, iqlim o‘zgarishi va resurslardan foydalanish masalasiga alohida urg‘u berib, barqaror rivojlanish strategiyasini dolzarb deb hisoblaydi”. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha olib borilayotgan siyosatlar Sachsning ilmiy qarashlari bilan muvofiq keladi.

Joseph Stiglitz tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy adolat, teng imkoniyatlar va inklyuziv o‘sish tamoyillari asosida O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ijtimoiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabr PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>


yoʻnaltirilganligi baholandi. “Joseph Stiglitz esa texnologik taraqqiyot faqat iqtisodiy oʻsish emas, balki adolatli va inklyuziv siyosat bilan qoʻllab-quvvatlangandagina ijobiy samara beradi, deb hisoblaydi”. Kontent-tahlil mamlakatda kambagʻallikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va bandlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni ijobiy baholadi.

Tahlil qilingan manbalarda global megatrendlar doirasida inson kapitaliga sarmoya kiritish va taʼlim tizimini zamonaviylashtirish ustuvor yoʻnalish sifatida qayd etilgan. Oʻzbekiston tajribasi bu borada Milliy taʼlim dasturi, oliy taʼlim muassasalari sonining ortishi va xalqaro taʼlim loyihalarida ishtirok etish orqali ifodalanmoqda (1-rasm).



1-rasm. Tematik kontent-tahlil natijalari (Tematik yoʻnalishlar)¹

Tadqiqot doirasida global megatrendlarning iqtisodiy siyosatga taʼsirini chuqurroq anglash maqsadida Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya tajribalari Oʻzbekiston holati bilan solishtirildi. Tahlil mezonlari sifatida raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, inson kapitali, innovatsion rivojlanish va institutsional salohiyat kabi yoʻnalishlar tanlab olindi. Har bir davlatda global megatrendlarga qanday javob qaytarilayotgani raqamlar asosida oʻrganildi.



2-rasm. Oʻzbekiston va yetakchi davlatlarning Global megatrendlarga moslashuvi²

¹ Manba: Muallif ishlanmasi

² Manba: <https://www.oecd.org/digital/digital-economy-outlook/>, <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/>, <https://data.worldbank.org/indicator/> maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya “Digital New Deal 2.0” strategiyasi orqali raqamli transformatsiyani milliy taraqqiyot strategiyasining markaziga aylantirgan. 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan ushbu dastur doirasida 58 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya ajratilishi belgilangan. 2023-yilda IT sektori mamlakat YAIMining 10,6% ini tashkil etdi, bu esa zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirishda davlatning faol rolini ko‘rsatadi. Mamlakat aholisining 93% qismi 5G tarmog‘i bilan qamrab olingan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston bilan solishtirilganda sezilarli farq qiladi: mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2023-yil yakuniga ko‘ra 2,2% ni tashkil etgan, 5G texnologiyasi esa hali sinov bosqichida qolmoqda (2-rasm).

Singapur tajribasi. Singapurda “Smart Nation” strategiyasi doirasida raqamli hukumat, sun‘iy intellekt, elektron xizmatlar va ma‘lumotlar asosidagi boshqaruv tizimi keng joriy etilgan. BMTning 2023-yilgi Elektron hukumat rivojlanishi indeksi (EGDI) bo‘yicha Singapur 1-o‘rinni egallagan. Davlat byudjetining 17% qismi raqamli transformatsiyaga yo‘naltirilgan bo‘lib, startaplar soni aholiga nisbatan yuqori - har 1000 kishiga 8,3 ta startap to‘g‘ri keladi. Taqqoslash uchun, O‘zbekistonda startaplar soni 400 dan ortiq bo‘lib, bu ko‘rsatkich aholiga nisbatan 0,4 tani tashkil etadi. Bu esa innovatsion muhit va texnologik ekotizimni rivojlantirishda hali katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Germaniya tajribasi. Germaniya global megatrendlarga javoban “Industrie 4.0” va “Yashil bitim” dasturlari orqali sanoatni raqamlashtirish va ekologik barqarorlikni maqsad qilgan. 2021-2027-yillarda yashil iqtisodiyotga 40 milliard yevro sarmoya yo‘naltirilishi rejalashtirilgan. 2023-yilda Germaniyada qayta tiklanuvchi energiya manbalari YAIMning 19,7% ini tashkil etdi, sanoatda raqamlashtirish darajasi esa 67% ga yetgan. O‘zbekistonda esa qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 13,5%, raqamlashtirilgan sanoat subyektlari ulushi 30% atrofida bo‘lib, bu sohada ham Germaniya tajribasidan o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Umumlashtiruvchi solishtirma jadvali¹

Davlat	Raqamli iqtisodiyot (YAIMdagi ulushi), foizda	Qayta tiklanuvchi energiya, foizda	EGDI (BMT reytingi)	Startap zichligi (1000 kishiga)
Janubiy Koreya	10,6	15,3	0,91 (Top 10)	5,2
Singapur	13,2	12,1	0,95 (1-o‘rin)	8,3
Germaniya	9,4	19,7	0,89	4,6
O‘zbekiston	2,2	13,5	0,57	0,4

O‘zbekiston holati. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, 2023-yilga kelib 400 dan ortiq davlat xizmati raqamlashtirildi, aholining 38% qismi raqamli xizmatlardan faol foydalanmoqda.

¹ Muallif ishlanmasi

2022-yilda IT sohasiga 260 million AQSH dollari sarmoya jalb etilgan. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hajmi 2,5 GW ni tashkil etmoqda, biroq ularning 40% hali qurilish bosqichida. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda hozircha to'liq natijaga erishilmaganini anglatadi (1-jadval).

O'zbekiston holati. So'nggi yillarda O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, 2023-yilga kelib 400 dan ortiq davlat xizmati raqamlashtirildi, aholining 38% qismi raqamli xizmatlardan faol foydalanmoqda. 2022-yilda IT sohasiga 260 million AQSH dollari sarmoya jalb etilgan. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hajmi 2,5 GW ni tashkil etmoqda, biroq ularning 40% hali qurilish bosqichida. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda hozircha to'liq natijaga erishilmaganini anglatadi (1-jadval).

O'zbekiston holati. So'nggi yillarda O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyani jadallashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, 2023-yilga kelib 400 dan ortiq davlat xizmati raqamlashtirildi, aholining 38% qismi raqamli xizmatlardan faol foydalanmoqda. 2022-yilda IT sohasiga 260 million AQSH dollari sarmoya jalb etilgan. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari hajmi 2,5 GW ni tashkil etmoqda, biroq ularning 40% hali qurilish bosqichida. Bu esa ekologik barqarorlikni ta'minlashda hozircha to'liq natijaga erishilmaganini anglatadi (1-jadval).

Ushbu tadqiqot doirasida O'zbekiston iqtisodiy siyosatining zamonaviy global megatrendlarga moslashuv salohiyati SWOT-tahlil yondashuvi asosida baholandi. Bu metod orqali mamlakatning ichki resurslari va tashqi muhitdagi o'zgarishlar bilan uyg'unlashish darajasi tahlil qilindi.

Kuchli tomonlar (Strengths):

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi: O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida raqamlashtirish sur'atlari sezilarli darajada oshdi. 2023-yilda davlat xizmatlarining 60 foizi onlayn shaklga o'tkazilgan¹.

Iqtisodiy islohotlar va ochiqlik siyosati: Investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilgan islohotlar xorijiy sarmoya oqimini jalb etishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2022-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 4,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi².

Demografik potensial: Yoshlar ulushining yuqoriligi (aholining 60 foizdan ortig'i 30 yoshgacha) texnologik yangiliklarga moslashuvchanlik imkonini kuchaytiradi.

Zaif tomonlar (Weaknesses):

Texnologik asorat va innovatsion tafovut: Ko'plab korxonalarda IoT, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish kabi ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi sust. Bu esa global raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir qiladi.

Kadrlar salohiyatining yetarli emasligi: Raqamli sohadagi yuqori malakali mutaxassislar yetishmovchiligi va "miya oqimi" holati sezilarli.

¹ <https://www.mtc.uz>

² <https://data.worldbank.org/indicator>

Statistik bazaning zaifligi: Strategik qarorlar qabul qilishda zarur bo‘lgan dolzarb va chuqur statistik ma’lumotlarning cheklanganligi tahlil jarayonini murakkablashtiradi.

Imkoniyatlar (Opportunities):

Yashil iqtisodiyotga o‘tish: O‘zbekiston xalqaro ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya jalb etmoqda. 2030-yilgacha energiya balansining 25 foizini quyosh va shamol manbalari tashkil etishi rejalashtirilgan¹.

3-jadval.

SWOT tahlili²

Yo‘nalish	Omillar	Mazmuni
Kuchli tomonlar	Raqamli infratuzilma	Davlat xizmatlarining 60% onlayn shaklga o‘tganligi raqamli transformatsiya jarayonining mustahkam asosini yaratadi.
	Iqtisodiy islohotlar	4,5 mlrd AQSH dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi investitsion muhit barqarorligini ko‘rsatadi.
	Demografik salohiyat	Aholining 60% dan ortig‘i 30 yoshgacha bo‘lib, mehnat bozori va innovatsiyalar uchun katta resurs hisoblanadi.
Zaif tomonlar	Texnologik modernizatsiya salohiyati	IoT va SI texnologiyalarini joriy etish imkoniyati mavjud bo‘lib, raqamli sanoatni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.
	Kadrlar salohiyatini oshirish	Ta‘lim va malaka oshirish dasturlari orqali inson kapitalini kuchaytirish imkoniyati mavjud.
	Statistik bazani takomillashtirish	Ma’lumotlar infratuzilmasini kengaytirish va ochiq ma’lumotlar tizimini rivojlantirish istiqboli mavjud.
Imkoniyatlar	Yashil iqtisodiyot	Qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25% ga yetkazish orqali barqaror rivojlanish ta‘minlanadi.
	Transmilliy hamkorlik	“Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi doirasida logistika va savdo integratsiyasini kengaytirish imkoniyati mavjud.
	IT eksport	IT Park va frilans sektori orqali xizmatlar eksportini kengaytirish istiqboli yuqori.
Tahdidlar	Global integratsiya muhitiga moslashuv	Geosiyosiy o‘zgarishlarga moslashuvchan iqtisodiy siyosat yuritish imkoniyati mavjud.
	Raqamli tafovutni kamaytirish	Raqamli inklyuziya siyosati orqali texnologik farqlarni qisqartirish mumkin.
	Iqlim barqarorligi	Suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik texnologiyalarni joriy etish orqali xavflarni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Transmilliy hamkorliklar: “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi doirasida infratuzilmaviy va savdo aloqalarini kengaytirish orqali iqtisodiy integratsiya chuqurlashmoqda (3-jadval).

¹ <https://www.oecd.org/digital/>

² Muallif ishlanmasi

Raqamli xizmatlar eksporti: IT Park va “freelance” sektorini rivojlantirish orqali xizmatlar eksportida yuqori o‘lish sur‘atlariga erishish imkoniyati mavjud.

Tahdidlar (Threats):

Global beqarorlik va geosiyosiy tahdidlar: Xalqaro bozorlardagi beqarorlik, logistik cheklovlar va geosiyosiy tarangliklar iqtisodiy strategiyalarni amalga oshirishda noaniqlik tug‘diradi.

Texnologik nomutanosiblik: Rivojlangan davlatlar bilan texnologik tafovut ortib borayotgani “raqamli bo‘linish” xavfini kuchaytiradi.

Iqlim o‘zgarishi xavflari: Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘siri, suv resurslarining cheklanishi iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston zamonaviy global megatrendlarga uyg‘unlashishda muhim ichki xazinalarga ega bo‘lishiga qaramay, ularni samarali ishga solish uchun strategik rejalashtirish, texnologik transformatsiyani jadallashtirish va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarur. Ayniqsa, ekologik barqarorlik va raqamli o‘zgarishlarga tezkor moslashuv orqali mamlakat o‘zining uzoq muddatli iqtisodiy raqobatbardoshligini ta‘minlashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy global megatrendlar - raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi, texnologik tafovut va geosiyosiy beqarorlik - bugungi kunda har bir davlatning iqtisodiy strategiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston uchun esa bu jarayonlar ikki tomonlama xususiyat kasb etmoqda: bir tomondan - global integratsiyaga kirib borish imkoniyati, boshqa tomondan - ichki institutlar va infratuzilmalarning ushbu trendlarga moslashuv darajasi bilan bog‘liq muammolar.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat global megatrendlarga javob izlash yo‘lida ilk qadamlarini qo‘ymoqda. Biroq bu jarayon hali ham reaksiya xarakteriga ega bo‘lib, oldindan strategik pozitsiyani egallash darajasiga yetmagan. Raqamli audit tizimlarining joriy qilinishi, ekologik izni kamaytirish bo‘yicha siyosatlar va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish borasidagi dasturlar - bularning barchasi ijobiy siljishlar bo‘lsa-da, izchil tizimlilik va institutsional mustahkamlik bilan ta‘minlanmas ekan, natijalar vaqtinchalik bo‘lib qolishi mumkin.

Bizningcha, O‘zbekiston global megatrendlarga qarshi emas, balki ular bilan birga harakatlanadigan, transformatsiyani oldindan rejalashtiradigan va uni ichki imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtira oladigan “moslashuvchan iqtisodiy tafakkur”ni shakllantirishi zarur. Bu esa faqat strategik fikrlovchi kadrlar, kuchli ilmiy-analitik markazlar va ochiq ma‘lumotlarga asoslangan real siyosiy iroda bilan ro‘yobga chiqadi. Har qanday megatrend - bu tahdid emas, balki imkoniyat, agar unga tizimli yondashilsa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Diamandis, P. H., & Kotler, S. (2014). Abundance: The future is better than you think. Free Press.

2. Friedman, T. L. (2016). Thank you for being late: An optimist's guide to thriving in the age of accelerations. Farrar, Straus and Giroux.
3. Nordhaus, W. D. (2018). The climate casino: Risk, uncertainty, and economics for a warming world. Yale University Press.
4. Rodrik, D. (2011). The globalization paradox: Democracy and the future of the world economy. W. W. Norton & Company.
5. Rodrik, D. (2017). Straight talk on trade: Ideas for a sane world economy. Princeton University Press.
6. Sachs, J. D. (2015). The age of sustainable development. Columbia University Press.
7. Schwab, K. (2016). The fourth industrial revolution. World Economic Forum.
8. Stern, N. (2007). The economics of climate change: The Stern Review. Cambridge University Press.
9. Stiglitz, J. E. (2019). People, power, and profits: Progressive capitalism for an age of discontent. W. W. Norton & Company.
10. Fukuyama, F. (2021). Liberalism and its discontents. Farrar, Straus and Giroux.
11. Rustamovna, Turobova Hulkar, and Narzullayeva Gulchehra Salimovna. "Possibilities Of Bio Economic Development In Uzbekistan." European Multidisciplinary Journal Of Modern Science 4 (2022): 860-866
12. <https://data.worldbank.org>
13. <https://www.weforum.org/reports>
14. <https://www.uz.undp.org>
15. <https://stat.uz/>
16. <https://siat.stat.uz/>
17. <https://mineconomy.uz>
18. <https://review.uz>
19. <https://mitc.uz>
20. <https://lex.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**